

Is gazidan zaharlanmaslik uchun nima qilish kerak?



24.11.2022

Is gazidan zaharlanmaslik uchun nima qilish kerak?

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti ma'ruzalar zalida fakultet dekani Sh.Narbayev dekan muovini H.Eshova va fakultet tyutri S.Ibragimova tashabbusi bilan "Is gazidan zaharlanishning oldini olish" bo'yicha tadbir o'tkazildi. Tadbirda Favqulodda vaziyatlar vazirligi markazi boshlig'i o'rinbosari B.Ubaydullayev, Favqulodda vaziyatlar vazirligidagi katta leytenant J.Matkarimov, Favqulodda vaziyatlar vazirligidagi katta leytenant X.Saydxo'jaev, Favqulodda vaziyatlar vazirligidagi leytenant I.Raxmatullaev, Favqulodda vaziyatlar vazirligidagi serjant M.Raximov, Toshkent shahar Yunusobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik B.Samigov, Universitet huquq targ'ibot maskani profilaktika katta inspektori A.Ubaydullayevlar o'z ma'ruzalari bilash ishtirok etishdi. Fakultet dekani Sh.Narbaev, tadbirni ochib berib, yig'ilish ishtirokchilarini bugungi mavzu bo'yicha tanishtirdi. Kuz-qish mavsumida aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda aholining bu boradagi savodxonligini oshirish maqsadida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda ijaraga yashovchi talabalar o'rtasida tadbir tashkil qilindi.



So'ng so'z navbatini Favqulodda vaziyatlar vazirligidagi katta leytenant X.Saydxo'jayevga berdi. X.Saydxo'jayev so'zga chiqib, bugungi mavzu bo'yicha talaba-yoshlarga ma'lumot berib, u o'z nutqida tahliliga ko'ra, Qish mavsumi yaqinlashgani sari yurtimizning turli hududlarida is gazidan zaharlanish, hattoki o'lim holatlari ko'payishi bugungi kunda Respublik bo'yicha 60 dan ortiq is gazidan zaharlanish holatlari kuzatilganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Is gazi nima, undan qanday saqlanish mumkin, qish arafasida xonadonlarda qanday ehtiyot choralari ko'rilishi kerakligi bo'yicha mutaxassislar talaba-yoshlarga kerakli ma'lumotlar berib o'tdi. Jumladan, gaz plitasidan binoni isitish va uning ustida kiyimlarni quritish, shuningdek, plitani nazoratsiz yoqilgan holatda qolishiga yo'l qo'ymaslik va hokazo.



Bundan tashqari, gaz sizib chiqayotganini ochiq olov, masalan gugurt chaqib tekshirib ko'rish mumkin emasligi to'g'risida ham atroflicha gapirib o'tdi. Tadbir davomida talaba-yoshlarga Is gazi bilan zaharlanishning oldini olish chora-tadbirlari aks ettirilgan videorolik namoyish etilib, ularni qiziqtirgan savollarga mutaxassis tomonidan javob berildi. Shuningdek, tadbirga so'zga chiqqan mutaxassislar talabalarga eng avvalo, uy egasi bilan ijar shartnoma qilish lozimligi to'g'risida kerakli, ijarada yashash tartib qoidalari to'g'risida, ijarada yashash manzili bo'yicha mahalla hamda uchastka noziri bilan doimiy aloqada bo'lishlari lozimligi to'g'risida ham batafsil ma'lumotlar berishdi. Tadbir 2 qismda o'tkazildi. Birinchi qismi mutaxassislar tomonidan talaba-yoshlarga is gazi bilan zaharlanishning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar berib o'tildi. Ikkinchi qismida fakultet hovlisida is gazidan zaharlanishning oldini olishga qaratilgan real ko'rgazmalar tashkil qilindi.



Tadbir yakunida fakultet dekani Sh.Narbaev talaba-yoshlar o'rtasida mana shunday tadbirlar va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish yoshlar o'rtasida turli noxush holatlarni oldini olishga katta yordam berishi shubhasiz ekanligi haqida gapirib mehmonlarga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti